

QO'QON XONLARI BUNYOD ETGAN BOG'LAR TARIXIDAN.

QDPI Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi:

S. Mamuroa

Anotatsiya: *Mazkur maqolada Qo'qon xonlari tomonidan bunyod etilgan bog'lar va ularning joylashuvi hamda ularning faoliyati haqidagi muhim ma'lumotlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Qo'qon xonligi, xonlar, davlatchilik, obodonlashtirish, shaharsozlik, bog'lar, mahalla, ko'cha.*

O'zbek davlatchiligi tarixida Qo'qon xonligi, jumladan uning ijtimoiy-madaniy hayoti tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'qon xonligi madaniy hayotining bir tizimga solib ochib berilmagan mavzularidan biri Qo'qon xonlari bunyod etgan bog'lar tarixidir. Qo'qon xonligi hukmdorlari o'z davridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qaramay hamisha poytaxt Qo'qonda va joylarda turli memoriy majmualar ta'lim muassasalari, ayniqsa go'zal va so'lim bog'lar barpo etishga muhim o'rin qaratib kelganlar. Chunki ushbu bog'lar hukmdorlarning rasmiy qabullari tashkil etiladigan tashqi qarorgohlar va ularning dam olish maskanlari sifatida xonlikning muhim davlat manzillari bo'lib kelgan. Qolaversa hukmdorlar poytaxtini shaharsozlik nuqtai nazaridan landshaftni puxta rejalashtirishga, shahar mudofasi uchun zahira maydonlariga ega bo'lishga, mikroiklimini, musoffoligini saqlashga va aholini zarur ozuqalar bilan ta'minlanib farovon turmush kechirishiga zarur e'tibor berganlar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra xonlik bog'larini yuzaga kelishi, faoliyati doirasi turli tarixiy omillar bilan bog'liq bo'lgan. Bizningcha, ushbu bog'larning vujudga kelishida avvalo ularni oliy davlat muassasalari joylashgan inshootlarining tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Chunonchi, Qo'qon xonligi ilk hukmdori Shohruhbiy 1709-yil "Ko'k to'nli azizlar" mavzeida o'rda bunyod etadi [1:8-10]. Bu mavze Qo'qondagi qadimiy qabriston Sarmozor hududida joylashgan edi. Shohruhbiy o'rdasi yonida yozgi qarorgoh "Chahor chaman"- ya'ni "to'rt chaman" ham barpo etiladi. Ushbu bog' Qo'qonning hozirgi "Islomobod" mahallasi Chorchaman ko'chasi hududlarida yaratilgan edi. Qo'qon xoni Muhammad Alixon ham 1826-1829-yillarda qurdirgan "Jahonoro" nomli o'rdasi yonida shu nomdagi yirik bog' tashkil etilgan edi. U Qo'qonning hozirgi "Buloqboshi" mahallasi Jahonoro ko'chasi hududida bunyod etilgan. Ularni mana shunday bog'lar qurshovida qurish yuqorida aytib o'tilgan omillar bilan bog'liq edi.

Xonliklarda bog' yaratish siyosiy ahamiyatga ega jarayon bo'lib, odatda yirik voqealar, jumladan hukmdorni hokimiyatga kelishi munosabati bilan ham bunyod etilgan. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Xudoyorxonning taxtga qayta o'tirishi munosabati bilan Afg'onbog' mavzesida yangi bog' yaratiladi. Bu bog' xonlar bog'lari orasida eng yangisi hisoblangani uchun unga "Bog'inaf"- ya'ni "Yangi bog" deb nom berilgan. Qo'qon xonligida barpo etilgan bog'lar davlatning tashqi qarorgohi sifatida yuzaga kelganligi uchun ham hukmdor faoliyatida muhim o'rin tutgan. Mana shunday bog'lar sirasiga Xudoyorxon davrida bunyod etilgan Afg'onbog'- yozgi qarorgohini misol keltirish mumkin. Qarorgoh nomi bu zaminda yashab qolgan afg'onlar manzili nomi bilan bog'liqligini tadqiqotchilar

qayd etganlar[2:5]. U Xudoyorxonning asosiy tashqi rezedensiyasi bo'lib, hukmdor bu yerda turli mamlakatlardan kelgan elchilar, shuningdek mandsabdor shaxslarni qabul qilgan[3:176]. Manzilgoh shaharning janubiy qismida, poytaxtdan 3kilometr narida joylashgan edi. Uning tuzilishi 1872-yil ikkinchi martta qarorgohda bo'lgan rus sayyohi I.I.Ibragimov esdaliklarida saqlanib qolgan.Unda yozilishicha majmua darvozaxona va undagi qorovulxona, tashqi hovli, xonning qabulxonasi, ichki hovli va bog'charvoqda iboratligi tasvirlangan[4:233-234].

Qo'qon xonligi bog'lar yaratishda temuriylar an'alarini davom ettirganlar, ularga havas qilhanliklari ham ma'lum.Chunonchi, Qo'qon xoni Erdonabiyning 1750-yil Qo'qon shahri hozirgi "Jumhurriyat" mahallasi Bog'I naqshi jahon ko'chasi o'rnida barpo etgan bog'ini temuriy Husayn Bayqaroning Hirotdagi bog'i kabi "Bog'i naqshi jahon" deb nomlangan. Yoki Qo'qon hukmdori Olimxon Afg'onbog' mavzesida barpo etgan chorbog'ni "Bog'i baland" deb Qo'qon xoni Muhammad Alixon Afg'onbog' mavzesida 1824-yil barpo etgan bog'ini "Bog'i dilkusho" deb Amir Temur bog'lari nomi bilan atashi bu fikrimizni tasdiqlaydi. Qo'qon shahrida Muhammad Alixon davrida "Bog'imaydon" Amir Umarxon davrida, "Bog'i shamol" joy nomlarining bo'lishi ham yuqoridagi mulohazalarimizni isbotidir.

Qo'qon hukmdorlari bog'larni tashkil etishda uni o'zi sevgan mashg'ulot bilan shug'ullanish, dam olish maskani o'rnida ham barpo etganlar. Chunonchi, Qo'qon xoni Amir Umarxon 1812-yil "Buloqboshi" mahallasida ijod qilish uchun chorbog' soldirgani ma'lum. Shoir Fazliy bu bog'ni "Bog'i Behishit" deb atagan. Shunindek, XVIII asrning 20-30-yillarida Qo'qonning hozirgi "Urmonbog" mahallasi hududida hukmdor Abduraimbiy tomonidan "Xonchorbog", Qo'qon hukmdori Amir Umarxon esa shaharning hozirgi "Qo'shchinor" mahallasi hududida "Chohorbog" nomli oromgoh bog'larni shu maqsadda barpo etganlar.

Qo'qon hukmdorlari o'z rafiqalari sharafiga ham bog'lar yaratib kelganlar. Jumladan, Hukmdor Xudoyorxon poytaxtining Urganjibog' mavzesida bog'lar barpo etgan bo'lib, ular orasida suyuqli xotini Mohizoda begimga atab ham bog' bunyod etgan. Ushbu malika Namangan viloyatining tog'li Iskovat qishlog'idagi Abdulatifxon to'raning qizlari bo'lgani uchun xalq uni "Iskovatlik oyim" deb atagan.

Shu o'rinda takidlash kerakki, mazkur davrda nafaqat hukmdorlar, balki davlatdagi ming sulolasining boshqa vakillari,diniy ulamolar, harbiylar, sarmoyadorlar, oddiy xalq vakillari ham bog'lar bunyod etganlari ham ma'lum.Xususan, ming sulolasi hukmdori Abdurahmonbiyning og'li Hojibekning Shayxon mahallasidagi, Norbo'tabiy davrida shayx Nosiriddin valiyning Qatog'on mahallasi chegarasidagi "Bog'i Behishit", Mir Olimboy, Sultonboy, Roziqberdi boylarning Achchiqko'l mavzesidagi "Bog'iston", Sarkarda Mirjalol sarbahodirning "Sarbahodir guzari" o'rnidagi bog'lari bunga misol bo'ladi[5:43].

Mazkur davrdagi bog'larning tuzilishi, me'moriy ziyoratchilik an'analari quyidagicha bo'lgan. Buni biz 1871-yil rus sayyohi A.P.Fedchenkonning Qo'qondagi Usmon boyvachcha hovli- bog'i tuzilishi tasvirida ko'rishimiz mumkin. Uni yozishicha "Boyvachchaning hovlisiga darvozaxonadan kirilgan.Darvozaxonda sarbozlar uchun qorovulxona qilingan.Hovlining ikki tomonida otlar uchun ayvon, omborxonalar bor edi. Hovli orqasida

keng va katak bog' bo'lib, undan ariq oqib o'tgan. Bog'da mevali daraxtlar, ular ostiga beda ekilgan edi"[6:40-41].

O'sha davr bog'larining o'simliklar tarkibi ham xilma-xil bo'lgan. Xususan, hukmdorlarning yuksak estetik didi, bunyodkorlik fazilati, qiziquvchanligi bunga sabab bo'lgan. Chunonchi, Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy bog' yaratishga, anvoyi o'simliklarni bizni zaminda ham yetishtirishga qiziqqan. Shu sababdan u Sarmozor yaqinidagi joyda bog' o'rnini tanlab, bu yerga G'ozyog'liq arig'idan suv keltirilgan. So'ng savdogarlar turli elchilar vositasida, turli mamlakatlardan gul, daraxtlar urug'lari, ko'chatlarini keltirgan. Bu bog' o'zining xilma-xil o'simliklari bilan tanilib,"Jahonobod" nomini olgan.

Biroq Qo'qon hukmdorlari yaratgan bu bog'lar turli tarixiy jarayonlar sabab, jumladan Chor Rossiyasi va sho'rolar davri mustamlakachiligi siyosati salbiy oqibatlarini tufayli yo'qlikka yuz tutgan. Faqatgina mustaqillik yillarida yurtimiz, jumladan Qo'qon shahrida ham barcha sohalardagi kabi madaniy hayot to'la ma'noda taraqqiy eta boshladi. Buni natijasida o'laroq bugungi kunda shaharda ko'plab madaniy tuzilma bo'g'inlari qatorida ikkita istirohat bog'I, bitta "Yoshlar bog'I" va yana ko'plab shunday kichik bog'lar faoliyat olib bormoqda[7:143]. Shahar tobora zamonaviy landshaftga ega qiyofa kasb etmoqda. Bir so'z bilan aytganda ko'hna Qo'qonda ota-bobolarimizning o'tmishda bog'lar yaratishdagi an'analari bugungi kunda yanmgicha mazmunda yuksalib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi hukmdorlari yaratgan bog'lar tarixi masalasi muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Bu masalaga oid ma'lumotlarni umumlashtirgan holda bu davlatda bog'larni yuzaga kelish omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1.Oliy davlat muassasalarining tarkibiy qismi sifatida bunyod etilishi;
- 2.Xonlikdagi muhim siyosiy jarayon, yirik voqealarni rasmiy ma'noda ifodasi sifatida yuzaga kelganligi;
- 3.Davlatning tashqi qarorgohi sifatida yuzaga kelganligi;
- 4.Temuriylar an'analarini davom ettirganliklari tasdihi o'rnida;
- 5.Hukmdorlarning xos oromgohlari sifatid yuzaga kelganligi;
- 6.O'z yaqinlarini e'zozlashlari tasdihi shaklida yuzaga kelganligi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mulla Olim. "Tarixi Turkiston". 1915. –B. 8-10
- 2.Oxunov.N. Joy nomlari tabiri. –Toshkent. "O'zbekiston", 1994. –B. 5
- 3.Nabiyev. R.N. Qo'qon xonligi tarixida. –Toshkent. 1973. –B. 176
- 4.Bobobekov. X. Qo'qon tarixi. –Toshkent. "Fan", 1996. –B. 233-234
- 5.Turkiston To'plami. 125-jild. –B. 40-41
- 6.Ibragimov.B. Ho'qandi latif va qo'qonliklar. –Toshkent. 2011. –B. 143